

G'OLIB JAMOA NOMI ANIQLANDI



G'OLIB JAMOA NOMI ANIQLANDI

Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini raisi Subhonali Nishonovning bizga bergan xabariga ko'ra, mahallada bugun millionlar o'yini - futbol rivojlanmoqda. Bunga mahalla hududida tashkillanayotgan futbol bo'yicha musobaqalar asosiy omil bo'layotir.

- Mahallaning saxovatpesha tadbirkori Valijon To'yichev tashabbusi bilan tashkil etilgan futbol musobaqalarida eng tajribali va mahoratli o'yinchilar nomi aniqlandi. Jamoalarga ham munosib sovg'alar va mukofotlar topshirildi, - deya yozmoqda mahalla raisi.

Futbol musobaqalarida g'olib bo'lgan "Hazrati ALI" jamoasiga 1 million so'm, ikkinchi bo'lgan "Sangi Siyoh" jamoasiga 500 ming so'm va uchinchi o'rinni egallagan "Zarmiyon" jamoasiga echki taqdim etildi.

Mahalla raisining so'zlariga ko'ra bunday sport tadbirlari mahallada muntazam o'tkaziladi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-23 11:41:14